

## **YOSH AVLODNI MUSIQAIY TARBIYA ASOSIDA SHAKLLANTIRISH**

*Ozodjon Soipov*

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi*

*Urganch filiali "Ta'lim sifatini nazorat qilish" bo'limi boshlig'i*

**Annotatsiya:** maqolada yosh avlodni bolalik davridanoq musiqiy bilim bilan tanishtirish va shu orqali uning estetik didni oshirish haqida so'z yuritiladi. Yoshlarni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk bo'lib yetishishida, musiqa, xalq o'yinlarining o'rni xususida fikrlar bildirilgan. Bolaning intellektual salohiyatini oshirishdagi musiqaning ahamiyati haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** musiqa, musiqiy tarbiya, did, musiqiy tanlov, musiqaterapiya, xalq o'yinlari.

**Аннотация:** в статье говорится о приобщении молодого поколения к музыкальным знаниям с детства и тем самым совершенствовании их эстетического вкуса. Высказывались мнения о роли музыки и народных игр в укреплении физического здоровья и умственной зрелости молодежи. Описано значение музыки в повышении интеллектуального потенциала ребенка.

**Ключевые слова:** музыка, музыкальное воспитание, вкус, музыкальный выбор, музыкотерапия, народные игры.

**Abstract:** the article talks about introducing the younger generation to musical knowledge from childhood and thereby improving their aesthetic taste. Opinions were expressed about the role of music and folk games in strengthening the physical health and mental maturity of young people. The importance of music in increasing the intellectual potential of a child is described.

**Key words:** music, musical education, taste, musical choice, music therapy, folk games.

Kundalik hayotimizda, jamiyatimizning madaniyatini vujudga keltirishda, uning ma'naviy hayotida, davrimizga munosib har tomonlama barkamol badiiy didli, sog'lom fikrli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda musiqa san'atining o'rni ahamiyatli bo'lib kelmoqda. Jumladan, mehnatkash xalq tomonidan yaratilgan kuy va qo'shiqlar kishi qalbini o'ziga rom qilib, asrlar osha xalq uchun ilhom manbai bo'lgan va insonlarga ma'naviy ozuqa berib kelgan. Xalqimiz o'zlarining bebaho musiqa durdonalarini yaratgani uchun bu asarlar hozirgi milliy musiqamizga asos bo'lish bilan bir qatorda, doimo go'zallikka tashnalik sezgan inson qalbi to'ridan o'rin olib kelmoqda. Inson qalbi go'zallikka tashnalik sezish bilan bir vaqtda go'zallik muhitidan ozuqa oladi va shakllanadi. "Musiqa - bu san'at, san'at esa mo'jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san'at vositasidagina kirish mumkin" degan edi Abu Ali Ibn Sino. Qadim zamonlardan buyon insoniyatning mavjudligi musiqa bilan chambarchas bog'liqdir. Tarix, Astronomiya, Geometriya, Falsafa kabi fanlar qatorida musiqa san'ati ham antik davrning tarkibiy qismidir. Musiqa azal-azaldan ko'plab xalqlarni, turli millat va elatlarni tilsiz ohanglar yordamida bir-biriga bog'lovchi mustahkam ko'prikdir. Musiqa san'ati nafaqat qalblarga orom beradi, balki estetik didni oshiradi, ruhni tarbiyalaydi, ma'naviy kamolotga yetkazadi va madaniy saviyani oshiradi. Musiqa inson tafakkurini va ongini rivojlantiradi. Bundan tashqari musiqa san'ati yosh avlod tarbiyasi uchun muhim vositalardan biridir. Bunga misol: bola tug'ilishi bilan u eshitadigan birinchi ovoz, birinchi kuy o'zining onadan eshitadigan allasidir. Bu sehrli kuy bilan birga bolaning qalbida ota-onasiga, yaqinlariga, vataniga bo'lgan muhabbat tug'usi shakllanadi. Oilada yaxshi tarbiya ko'rgan bola jamoa o'rtasida, do'stlar davrasida, turli tadbir va tomoshalarda, ota-onaning obro'si uning shuhrati sifatida ta'riflanadi.

Alla bolaning chaqaloqlik davridanoq uni ohanglar vositasida ezgulikka chorlaydi. Qulog'iga aytilgan azon ovozidan esa o'zining kimligi-yu, qaysi millat farzandi ekanini his etadi. Bundan tashqari, eramizdan avvalgi IV asrda yashab o'tgan yunon faylasufi Aflotuun "Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san'atda mujassamlashgan. Zeroki, ohang va uyg'unlik (garmoniya) bolalik chog'iga qalbgacha chuqur yo'l topadi va salobat baxsh

etib, uni ko'rkam qiladi. Bu esa musiqiy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishni taqozo etadi, aks holda uning teskarisi kelib chiqadi",<sup>1</sup> degan edi. Aflotunning shogirdi buyuk Aristotil (Arastu) esa komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlab yozadi: "Musika kishi ruhining axloqiy tomonga ma'lum darajada ta'sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyalaydigan predmetlaridan biri bo'lib xizmat qilmog'i lozim". Musika murakkab hissiyotlarni o'zida mujassamlashtirgan kayfiyatni ifodalashda juda katta ahamiyatga ega. Uning kuchi shunda-ki, shodlanish, qayg'urish, hayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik kabi ruhiy holatlarni o'zaro bog'liqlikda ifoda etadi. Musiqiy tarbiyada bola o'z hissiyoti va fikrlarini takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham bola tinglaydigan musiqiy asarlar o'z xarakteri, janriga ko'ra uning aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Bola kamolotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy va axloqiy poklik, imon, insof, diyonat, or-nomus, oqibat singari fazilatlar o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Balki unga ta'sir ko'satadigan tashqi omillarga ko'p narsa bog'liq. Aytaylik, oiladagi sog'lom-nosog'lom muhit, kattalarning bir-biriga va yosh bolaga munosabati, bolani biror bir to'garak yoki hunarga jalb qilish va h.k. Hozirgi tezkor davrda bolaning bo'sh vaqtini foydali o'tkazish uchun uni nimadir bilan mashg'ul qilish kerak. Aytmoqchimiz-ki, bekorchilik zerikish va uning oqibatida dangasalikni keltirib chiqaradi. Yohud bekorchilik turli buzg'unchiliklarning sababchisi, dangasalik esa bir necha xil kassalliklarning asosiy omilidir. Bunga befarq bo'lish esa faqat bir oilaning emas, jamiyatning, millatning tanazzulidir. Musika bilan tanishtirish, tarbiyalash yaxshi, albatta. Ammo har bir yoshga oid tinglanadigan musiqalar majmuasi bor. Yosh bolaga mumtoz yoki o'ta sho'x musika eshitirsangiz uni tushunmasligi tabiiy. Bundan tashqari o'ta baland tovushlar, jazavali musiqalar, ma'nosini o'zi bilmaydigan chet el musika va qo'shiqlari bolaning (hatto har bir yetuk insonning) faqat eshitish qobiliyatiga ta'sir etibgina qolmay, ruhiy buzilish va zo'riqishga olib keladi. Shu bois har bir yoshga mos musika tinglash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, endigina shakllanayotgan bolaning miyasini jazavali musiqalar bilan zararlamaslik lozim. Buning uchun qilinadigan eng

---

<sup>1</sup> <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/manaviyat/2193.htm>

muhim ish bolada musiqiy didni, tanlov qobiliyatini shakllantirish hisoblanadi. Boshlang'ich musiqa maktablarda o'qitish esa musiqa madaniyatining asosiy poydevori shakllanadi. Ammo maktabgacha tarbiya inson shaxsi shakllanishining muhim, mas'uliyatli davri sifatida mustaqil ahamiyat kasb etadi. Chunki u boshlang'ich ta'limning tayyorgarlik bosqichidir. Boshlang'ich maktab musiqa darslarida bolalarning aqliy rivojlanishlari me'yoriga mos oddiy musiqiy bilim, tushuncha va malakalar tarkib toptiriladi. Musiqani tinglash, qo'shiq kuylash, oddiy cholg'ularni chalish orqali badiiy idrok etish, musiqadan olgan taassurotlari, bilganlari haqida gapirib berish, asarni badiiy baholash, musiqa ijodkorligi malaka ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyotlari vositasida o'quvchilarda musiqaga havas va badiiy ehtiyoj uyg'otiladi. Musiqa darslari maktabda teng huquqli fan hisoblanib, haftada ikki soatdan o'qitiladi, maktab o'quv rejalari va dasturlariga yozma ishlar, reyting hamda muqarrar va ixtiyoriy imtihonlar joriy etiladi. Iqtidorli va ishtiyoqmand o'quvchilar badiiy ehtiyojlariga qarab fakultativ darslar, musiqa to'garaklari va boshqa mashg'ulotlarda badiiy rivojlantiriladi. O'quvchilarni musiqiy rivojlantirish, badiiy ehtiyojini qondirish, iqtidorli o'quvchilarni ijobiy rivojlantirish yo'lida tabaqalashtirib o'qitish uchun zarur imkoniyatlar yaratiladi. Biroq bu degani hamma mas'uliyatni o'qituvchi yoki tarbiyachiga yuklab qo'yish kerak emas. O'quvchi oilada ota-ona yoki aka-opalari bilan birga shug'ullanishi, ularning nazorati va albatta, ularning ishonchi bilan bolada musiqaga qiziqish yuksaladi. Natijada esa musiqani his qilish, uni tushunish va mehr berish tuyg'ulari shakllanadi.

Musiqa bolaga har tomonlama yordam berib, tevarak-atrofni obrazli, emotsional idrok etish va bola xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatish uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo'yiladi:

Bolada musiqiy qobiliyatni rivojlantirish.

Bolalarni ashula aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o'rgatilib, ularda musiqani qabul qilishni his etish va tushinish qobiliyatlarini tarbiyalash.

Bolada badiiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Musiqiylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini, ularning atrofidagi qo'shimcha, obrazlarni bolalar yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida ularning tevarak-atrofni bilishda, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.<sup>2</sup>

Tibbiyotda musiqaterapiya degan alohida yo'nalish bor. Uni psixoterapiya sifatida, shuningdek og'ir betob bo'lgan bemorlarga yordam uchun qo'llaniladi. Musiqaterapiyani yana bir qiziqarli metodi – bu ashulalar yozish. Bu metodni ayrim psixoterapevtlar ishtirokchilar bilan ishlashda qo'llashadi. Agar inson o'z hissiyotlarni so'z bilan izohlay olmasa unga musiqa yordamga keladi: u o'z tarixini aytib berishga, chuqur hissiyotlarni boshdan kechirishga, o'zini yaxshiroq tushunishiga muhim qaror qabul qilishga va o'z qadriga yetishga yordam beradi. Musiqa bilan shug'ullanish turli intellektual va ruhiy buzulishlari mavjud odamlarga, jumladan yoshlarga jamiyatga yaxshi moslashish va kirishib ketishga yordam beradi. Sog'ligida, xarakterida, boshqalar bilan munosabatida yoki ruhiyatida oqsash kuzatiladigan bolalarda o'z vaqtida qo'llangan musiqaterapiya ijobiy natijalar beradi. Yana shuni ham aytib o'tish joiz-ki, bolalarning intellektual salohiyatini oshirishda musiqa bilan birga o'zbek xalq raqslarining ham o'rni beqiyos. Xalq raqslari bolalarga bag'rikenglik, do'stona munosabatlar va kirishimlilikni o'rgatadi. Bolalarni raqsga jalb qilishda uning yoshi, jismoniy holati, xarakteri va bolalarning soni inobatga olinadi. Milliy raqslar bolalardagi bir qancha sifatlarni shakllantiradi. Jumladan: ijobiy tuyg'usini his qilish, raqs mahoratini o'stirish, shaxsni shakllantirish, harakatga undash, ruhiy jarayonlarning takomillashuvi, nutq ravonligi, tezkor fikrlash, jismoniy sifat va salomatligini yaxshilash, milliy qadriyatlar va an'analardan xabardolik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Umuman olganda an'anaviy xalq o'yinlari va milliy bellashuvlar inson hayotida nafaqat xalq madaniyati va san'atining azaliy ajralmas bo'lagi, shuningdek bolalar va kattalarni tarbiyalovchi muhim omil sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, sog'lom avlodni tarbiyalash jarayoniga milliy xalq o'yinlarini ham faol tadbiq etish lozim. O'zbek musiqa san'atini rivojlantirish hamda uning imkoniyatlarini kengaytirish borasida Muhtaram Prezidentimiz tomonidan bir

---

<sup>2</sup> Yusupova N. "Musiqa savodi, metodikasi va ritmika" «Musiqa» nashriyoti Toshkent 2010. 34-B

qator qaror va farmoyishlar chiqarilib, keng imkoniyatlar yaratilmoqda. “Sharq taronalari”, “Shashmaqom”, “Xalq cholg‘ulari ijrochilari”, Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilar” kabi xalqaro va respublika ko‘rik-tanlovlarinig o‘tkazilayotganligi hamda ularda yangi iste‘dodli yoshlarni kashf qilinayotganligi o‘zbek musiqasini yanada taraqqiy etayotganidan dalolatdir. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, mamlakatimizda komil inson shaxsini shakllantirish davlat siyosatining ustivor yo‘nalishiga aylangan hozirgi sharoitda ma‘naviyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan musiqiy ta‘limning o‘rni beqiyosdir. Zero, musiqa, qo‘shiq har doim xalqimizning jon ozig‘i bo‘lib kelgan. Musiqiy merosimizni saqlab, kelgisi avlodga yetkazdirish har birimizning burchimizdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. Асафьев Б. В. Музыкальная форма как процесс. Л.: Госуд. муз. изд., 1971г.
2. Aidriyeva. A.M. Metodika prepodovaniya xorovogo dirijorovaniya. M.; Proyevedeniya. 1989.
3. Tursunov R. “Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti”. Toshkent., 2002.
4. D.Soipova. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. Toshkent., 2005.
5. Nurmatov H, Yo‘Ldosheva N “O‘zbek xalq musiqa ijodi”. Toshkent., 2007
6. Soipova D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. Toshkent., 2009.
7. Yusupova N. “Musiqa savodi, metodikasi va ritmika” «Musiqa» nashriyoti Toshkent 2010.
8. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/manaviat/2193.htm>